

**ОБРАЗОВАНИЕ,**

**НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ  
В МИРЕ**

**международный научный электронный журнал**

*Выпуск журнала № 53  
Часть-2\_ Сентябрь -2024*

OPEN  ACCESS



# ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

*международный научный электронный журнал*

Сентябрь - 2024 год

ЧАСТЬ - 2



## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISH SOHALARI KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

*Imomova Gulchiroy Saparovna*

*Buxoro viloyati Olot tumani 12-son DMTT direktori*

**Аннотация:** Ushbu maqolada bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari bayon qilingan. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarining metodologik asoslari ko'rsatib berilgan. Jumladan, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarga alohida to'xtalib o'tilgan.

**Аннотация:** В данной статье описаны компетенции в области развития ребенка. Показаны методологические основы компетенций в сферах развития ребенка. В частности, были рассмотрены нормативно-правовые документы, касающиеся сферы дошкольного образования и воспитания.

**Abstract:** This article describes the competences in the areas of child development. Methodological bases of competences in the child's development areas are shown. In particular, regulatory and legal documents related to the field of preschool education and upbringing were specifically addressed.

**Kalit so'zlar:** bola, koppelensiyalar, rivojlanish sohalari kompetensiyalari, jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari, bilish jarayonining rivojlanishi.

**Ключевые слова:** ребенок, кокомпетенции, компетенции в областях развития, физическое развитие и формирование здорового образа жизни, социально-эмоциональное развитие, речь, общение, навыки чтения и письма, развитие познавательного процесса.

**Key words:** child, co-competences, competences in developmental areas, physical development and formation of a healthy lifestyle, social-emotional development, speech, communication, reading and writing skills, development of the cognitive process.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida juda katta islohotlar amalga oshirilmoqda biroq, o'quv-tarbiyaviy jarayonda turlicha yondashuvlar olib borilsa-da, bolalarning maktab ta'limiga moslashishi, tengdoshlari va atrofdagilar bilan samarali muloqotga kirishishi qiyin kechmoqda. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikatsiyaning shakllanish darajasi ilk go'daklik davri bilan bog'liqdir. Bu davrda bola insonlar dunyosiga kirib boradi, so'zlashish belgilarni o'zlashtiradi. Odamlar o'rtasidagi muloqot me'yorlari va xulqatvor qoidalari, insonning nutqiy faoliyatining oddiy ko'rinishlari bilan tanishadi. Maktabgacha yoshdagi bola ilk

rivojlanish davrida ijtimoiy munosabatlar dunyosiga kirib boradi. Oila a'zolari va pedagog-tarbiyachilar bilan muloqotda bo'lishi orqali asta-sekin xulq-atvor me'yorlarini o'rganadi. Lekin bu davrda u o'z harakatlarini anglay olmaydi. Nutq va muloqot ta'sirida bolaning ichki dunyosi shakllana boshlaydi. Bolaning kattalar bilan munosabat shakli o'zgaradi, atrofidagi voqea-hodisalarga munosabat bildiradi. Natijada bolalar kommunikativ faoliyatni o'zlashtira boshlaydilar. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar kattalar bilan muloqotga kirishadi, o'z atrofidagi jarayonlar bilan bog'liq ravishda so'z zaxirasi kengayib boradi. Bola o'zi shaxs sifatida muloqotni o'rganadi. Bu davr kommunikativ kompetensiyani shakllantirish juda ham muhimdir. Chunki bolalarda "Men" konsepsiyasi shakllanib bo'ladi, ya'ni individuallik yuzaga keladi, o'z-o'zini ko'rsatish ustuvorlik qiladi o'z fikrini erkin ifodalaydi. Individuallashishda bolalarning muloqot qilish ehtiyojlariga bog'liq o'zgarishlar kuzatiladi. Bunda bolalar asta-sekin ommaviy munosabatlarga kirisha boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish orqali ularni maktab ta'limiga intensiv tayyorlash masalasi dolzarb sanalmoqda. Mana shu jarayonda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirishga e'tiborni qaratish davr talabi sifatida dolzarbligini hech qachon yo'qotmaydi. Chunki barkamol avlod tarbiyasi har qaysi davlatning eng asosiy ustuvor vazifasi hisoblanadi. Bu borada birinchi prezidentimiz Islom Karimov shunday degan edilar;-" Har qaysi davlat, har qaysi millat o'z farzandlari qiyofasida, unib-o'sib kelayotgan yosh avlod timsolida shu xalqqa xos eng go'zal fazilatlarni namoyon etadigan, uning ezgu orzu-niyatlarini amalga oshirishda mardlik va fidoyilik ko'rsatishga qodir bo'lgan o'z tayanchi va suyanchini ko'rishi tabiiydir.

✚ **Kompetentsiya** -bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang'ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat'i nazar,bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

✚ **Bilish kompetensiyasi** – atrofidagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

### «Ijtimoiy-hissiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalari

«Ijtimoiy-emotsional rivojlanish» sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- o'z «Men»i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;
- o'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;
- o'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;
- kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;

➤ murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo‘llarini topadi. ta’lim berishda kompetentsiyaviy yondashuv

Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarda kommunikativ kompetensiya yetarli darajada shakllanmayapti. Natijada maktab ta’limiga qadam qo‘ygan bolalarning aksariyati turli hayotiy vaziyatlarda muammoga uchramoqdalar. Bolalar maktabgacha ta’limda olgan bilim va ko‘nikmalarini mustaqil fikrlash orqali namoyon etishlari lozim, biroq ularda so‘z boyligini yetarli emasligi sababli muloqotga qiyinchilik bilan kirishadilar. Shuning uchun ham ularning nutqini rivojlantirish, lug‘at zaxirasini boyitish zarur.

O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarida bola kompetensiyasi tushunchasiga ma’lum bir yosh davriga xos bo‘lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo‘lgan bolaning bilimi, ko‘nikmasi, malakalari hamda qadriyatlari deb ta’rif beriladi. Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonida mazkur kompetensiyani bajarish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasasining “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining soha kompetensiyalari tarkibida kommunikativ kompetensiya alohida mezon sifatida belgilab berilgan bo‘lib, muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi deb izohlangan. Shu bilan bog‘liq holda bajarilishi rejalashtirilayotgan tadqiqot davlatning ijtimoiy buyurtmasi talablarini bajarishga oid vazifalarni ko‘zda tutadi.

Bugungi kunda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirishda biz 2020 yil 22 dekabrda qabul qilingan maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim standartlariga ko‘ra ish yuritamiz. Bu standartga ko‘ra bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari quyidagilardan iborat

- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

“Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi” sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- o‘z imkoniyatlari va yoshi bilan bog‘liq jismoniy rivojlanish me‘yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko‘rsatadi;
- turli harakatchanlik faolligini uyg.,un ravishda va maqsadli bajarishni biladi; turli hayotiy va o‘quv vaziyatlarida mayda motorika ko‘nikmalaridan foydalanadi;
- o‘z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi; shaxsiy gigiena malakalarini qo‘llaydi;
- sog‘lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi;
- xavfsiz hayotiy faoliyat asoslari qoidalariga rioya qiladi.

“Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi” sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

O‘z imkoniyatlari va yoshi bilan bog‘liq jismoniy rivojlanish me‘yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko‘rsatadi;

- ❖ turli harakatchanlik faolligini uyg‘un ravishda va maqsadli bajarishni biladi;
- ❖ turli hayotiy va o‘quv vaziyatlarida mayda motorika ko‘nikmalaridan foydalanadi;
- ❖ o‘z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi;
- ❖ shaxsiy gigiena malakalarini qo‘llaydi;
- ❖ sog‘lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi;

Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari borasidagi ilmni o‘rganar ekanmiz, bunda rivojlangan Sharq mamlakatlaridan Yaponiya va Xitoyning o‘ziga xos jihatlari borligiga amin bo‘ldik. Masalan, Yaponiyada bu kompetensiyalar maktabgacha tarbiya berishdagi beshta yo‘nalishni o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib, bular quyidagilardan iborat.

- ✓ ijtimoiy munosabatlar;
- ✓ salomatlik, havfsizlik;
- ✓ til;
- ✓ atrof muxit;
- ✓ his-tuyg‘ularini ifodalash.

Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllanishida amalga oshiriladigan vazifalarning huquqiy asosi sifatida “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni xizmat qiladi. Bunda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllanishiga xizmat qiladigan maktabgacha ta‘lim va tarbiya tashkilotlari hamda tarbiyachi pedagoglar, ota-onalarning huquq va majburiyatlari mustahkamlangan. Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida esa bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirishning mavjud shart-sharoitlari va imkoniyatlari, kamchiliklari o‘rganilgan hamda 2030 yilgacha bu jarayonda amalga oshiriladigan vazifalar belgilab berilgan.

Bugungi kunda bizning mamlakatimizda ham maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga bolalarning kengroq qamrab olish maqsadida xususiy maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va uy bog‘chalar faoliyatiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Lekin Xitoy davlatidan farqli jihati, bizda qabul qilingan davlat standartlari barcha maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga, jumladan, davlat va nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga bir xilda amalga oshirilishi belgilab berilgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni. 2019 yil 16 dekabr. <https://lex.uz>.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VMQ 802-sonli qarori. 2020 yil 22 dekabr. <https://lex.uz>.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli qarori. <https://lex.uz>.

4. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va xalqiga murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr. <https://president.uz>.

5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi va YUNESKO hamkorligida. (2018) I.V. Grosheva, L.G. Evstafeva, D.T. Maxmudova, Sh.B.

## МАКТАБГАЧА TALIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING KASBIY MEHNATGA OID KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

*Komilova Feruza Komiljon qizi*

*Namagan viloyati To'raqo'rg'on tumani*

*38-son DMTT direktori*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarni mehnatga asta-sekin qiziqtirish, ularning kasbiy mehnatga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otish, mehnat faoliyatining boshlang'ich ko'nikmalarini o'rgatish va mehnatsevarlikni rivojlantirish kerak. Tarbiyalanuvchilarni kattalar bilan birgalikda ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilgan holda kasbiy mehnatning ijtimoiy ahamiyatini anglab yetishlariga yordam berishi kerakligi keltirilgan.

**Аннотация:** В этой статье необходимо постепенно заинтересовывать дошкольников к труду, пробуждать в них страсть к профессиональному труду, обучать основным навыкам труда и развивать трудолюбие. Утверждается, что детям следует помочь понять социальную значимость профессионального труда, вовлекая их в общественно-полезный труд вместе со взрослыми.

**Abstract:** In this article, it is necessary to gradually interest preschoolers in work, awaken in them a passion for professional work, teach basic labor skills and develop diligence. It is argued that children should be helped to understand the social significance of professional work by involving them in socially useful work together with adults.

**Kalit so'zlar:** Tarbiyalanuvchilar, kasbiy mehnat, ko'nikma, atrof-muhit, o'yinlar, tarbiya, jarayon, axloqiy, faoliyat.

**Ключевые слова:** дети, профессиональная деятельность, умение, среда, игры, образование, процесс, нравственность, деятельность.

**Key words:** children, professional work, skill, environment, games, education, process, moral, activity.

O'zbekiston rivojlanishining yangi bosqichida barcha sohalarda islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, so'ngi yillarda har bir soha rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladigan ilm-fan va ta'limga ham katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek ta'lim sifatini oshirish esa yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu-yagona to'g'ri yo'lidir. Shunday ekan, farzandlarimizni bilim olishi, kasb-hunar egallashi, o'zini- o'zi rivojlantirishlari uchun barcha shartsharoitlar va imkoniyatlar davlatimiz tomonidan yaratib berilmoqda. Bolalar bog'chasi o'qituvchilari uchun maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish dasturiga rioya qilish muhimdir, lekin hech qachon yangi va original narsaga bo'lgan xohishni yo'qotmang.



Bugun siz Internetda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ko'plab kasbiy yo'l-yo'riq darslarini topishingiz mumkin va ular chaqaloqlar uchun ideal faoliyatingizni yaratishda katta yordam berishi mumkin..Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni kattalar bilan birgalikda ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilgan holda kasbiy mehnatning ijtimoiy ahamiyatini anglab yetishlariga yordam berishi kerak. Ish jarayonida namoyon bo'ladigan o'zaro yordam va g'amxo'rlikning hayotiy misollarini keltirgan holda, tashkiliylikni, izchillikni va vazifalarni aniq taqsimlashni talab qiladigan kasbiy mehnat jarayonining birlashtiruvchi ma'nosini ta'kidlash muhimdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni dastlabki kasb-hunarga yo'naltirish o'yin va mashg'ulotlar davomida ularning tug'ma layoqati, moyilligi va qobiliyatlarining ilk nishonlarini o'rganib borishi bilan mehnatga ijodiy munosabatini, tengdoshlari va kattalarga yordamga tayyorgarlik xususiyatlarini takomillashtirish turli kasb-hunar to'g'risida yoshiga mos qilib ma'lumotlar berish yo'nalishlarida olib boriladi. Bunda albatta maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning fiziologik, individual-psixologik xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Ma'lumki, bu yoshda idrok, diqqat, xotira va tafakkur, nutq ba tasavvur sezilarli darajada shakllangan va shakllanishi faol ketayotgan davr hisoblanadi. Bu maktabgacha ta'lim tarbiya-lanuvchisini maqsadli va ongli xatti-harakati hamda berilayotgan ma'lumotlarni tushunishi, o'qish imkonini beradi. Shuningdek, bu yoshda o'z xatti-harakatini nazorat qilish, o'zligini baholashning soddaroq bo'lsada ko'rinishlarini bolalarda kuzatish mumkin.

### **Tarbiyalanuvchilarning kasbiy mehnatga ko'nikmalarini shakllantirishning asosiy vazifalari:**

- mehnat qobiliyatini rivojlantirish;
- atrof-muhit va hayotning tuzilishi haqidagi g'oyalarni boyitish (mehnat faoliyatida mumkin bo'lgan ishtirok etish jarayonida);
- jamoada ishlash va jamoaviy ishlashga tayyorlik
- aqliy rivojlanish, shu jumladan axborotni, g'oyalarni idrok etishni rivojlantirish sodir bo'layotgan narsalar haqida, harakatlarning ma'nosini tushunish, mehnat asboblardan foydalanishning ma'nosi va usullarini tushunish, mehnat jarayonini rejalashtirish va mehnat natijalarini oldindan ko'rish qobiliyatiga ega bo'lish;
- axloqiy va shaxsiy rivojlanish (boshqa odamlarning mehnatini hurmat qilish,ularga yordam berish istagi; mustaqillikni, faollikni rivojlantirish, o'zaro yordam, ijtimoiy foydali faoliyatga tayyorlik, boshlangan ishni oxiriga yetkazish qobiliyatini shakllantirish;
- nutqni rivojlantirish (so'z boyligini boyitish, muloqot qobiliyatlarini yaxshilash);
- jismoniy rivojlanish (qat'iyatlilikni rivojlantirish, harakatlarni muvofiqlashtirish, nozik vosita qobiliyatlari va boshqalar);

➤ estetik rivojlanish (ishni bajarish istagi va qobiliyatini egallash.nafaqat to'g'ri va tez, balki chiroyli).

Tarbiyachining maqsadi tarbiyalanuvchilarga o'z mehnatini bilish muhimligini, shuningdek, mehnatning qadr-qimmatini anglash, mehnat qoniqish olib kelishini ta'kidlab, natija quvonch va zavq keltirishi mumkin.

Kasbiy mehnat tarbiyasiga oid muammolarini hal qilish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish;
- Uy-ro'zg'or ishlarida ishtirok etish;
- Tabiat burchagida ishlash;
- Qo'l mehnati;
- Tabiatda ishlash.
- Markazlar orqali ishlash

Mehnat quvonchi kuchli tarbiyaviy kuchdir. Bolalik yillarida tarbiyalanuvchi bu ezgu tuyg'uni chuqur his qilishi kerak. Mehnatda insoniy munosabatlarning boyligi tarqaladi. Agar tarbiyalanuvchi bu munosabatlarning go'zalligini his qilmasa, kasbiy mehnatga muhabbatni tarbiyalash mumkin emas. Mehnat tarbiyasi jarayonida eng avvalo, yosh tarbiyalanuvchilarda madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, o'rganish kerakbolalar nafaqat o'zlariga, balki boshqalarga ham g'amxo'rlik qilishlari kerak. Shu maqsadda quyidagi tadbirlardan foydalanish mumkin:

- "Tozalik –salomatlik garovi" -madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish;
- "Keling, tanishamiz" –kasb turlari bilan tanishtirish;
- "Bizning yordamchilarimiz" -maishiy texnika bilan tanishish;
- "Yashil do'stlar" –o'simliklarni parvarish qilishda ishtirok etish;
- "Yashil do'stlar" –o'simliklarni parvarish qilishda ishtirok etish;
- "Jonli burchak" -hayvonlarni parvarish qilish bilan tanishish (baliq va boshqalar);
- "Mazali ustaxona" -pishirish asoslari bilan tanishish, jarayonga jalb qilish oddiy taomlarni tayyorlash

Mehnatning aqliy tomondan rivojlantirishdagi ahamiyati shundaki, mehnat jarayonidaular borliqni faol anglay boshlaydilar. Maktabgacha yoshdan boshlab tarbiyalanuvchilarga mehnat tarbiyasini berish ularni estetik va jismoniy jihatdan ham rivojlantiradi.Yosh avlodga berish masalasi hozirgi davrda eng dolzarb mavzu hisoblanadi. Mehnat har bir yosh guruhidagi tarbiyalanuvchilarning o'ziga xos xususiyatlarni etiborga olib tashkil etiladi, unga to'g'ri rahbarlik qilgandagina etarli natijaga erishish mumkin. Maktabgacha yoshidagi tarbiyalanuvchilarning o'ziga xos tomonlari ko'pgina olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda keng o'rganib

chiqilgan. Bolalar mehnatining muhim belgisi ularning ma'lum maqsadga yo'naltirilganligi. Kichik maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mehnati inson jarayonga oid xarakter bo'lib, u faqat kattalarning rahbarligi natijasida amalga oshirilishi mumkin. Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni o'z faolyatlarini taxminiy rejalashtirib olishlariga o'rgatishi va ular faolyatiga rahbarlik qilib olishi lozim.

**Xulosa shuki,** Maktabgacha yosh davrida kasbiy mehnatga oid mashg'ulotlar o'yinlar orqali o'zaro bog'liq holda kechadi, biroq har qanday holda ham tarbiyalanuvchilar mehnatini o'yinga aylantirish, ularning farqini yo'qqa chiqarish noto'g'ri bo'lar edi. Tarbiyachilar va ota-onalar ta'sirida asta-sekin bolalar mehnati o'z vazifasi, mazmuni, metodi va tashkil etilishi bilan mustaqil faolyat sifatida ajratib boriladi. Mehnat qilish muntazam tarzda bo'lib unda hamma tarbiyalanuvchilar ishtirok etsa va kattalar mehnati bilan tanishtirib borilsa, u tarbiya vositasiga aylanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boboyorova G. Bolalarni maktabga tayyorlashda interfaol usullardan foydalanish. Maktabgacha ta'lim j., 2007. 6-son. -14 b.
2. Bure R.S. Maktabgacha tarbiyachi va mehnat: Mehnat tarbiyasi nazariyasi va metodikasi // Darslik -metod. nafaqa. Sankt-Peterburg: Detstvo-Press, 2004. 141 p.
3. Kutsakova L.V. Bolalar bog, chasida Mehnat tarbiyasi: 3-7 yoshli bolalar bilan ishlash uchun: Uslubiy qo'llanma. Moskva: Mosaic-Synthesis, 2007. 135 p. (Bolalar bog, chasida ta'lim va tarbiya dasturi kutubxonasi)
4. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. –T., 2018 yil
5. Z.B. Qodirov. Komil inson tarbiyasining pedagogik asarlari. T-2001.

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТИЗИМИДА INNOVATSION BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI

*Otamirzayeva Iroda Orifjonovna*

*Namagan viloyati To'raqo'rg'on tumani*

*28-son DMTT direktori*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv samaradorligini takomillashtirish, hamda boshqarish usullari, innovatsion boshqaruv funksiyalari va ta'lim jarayonlarida yuqori samaradorlikka erishish haqida ma'lumotlar berilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о повышении эффективности управления в дошкольных образовательных организациях, а также о методах управления, инновационных функциях управления, достижении высокой эффективности образовательного процесса.

**Abstract:** In this state, information is presented on the improvement of the effectiveness of management in educational organizations, as well as on methods of management, innovative functions of management, and the achievement of high efficiency of the educational process.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, ta'lim, texnologiya, jarayon, boshqaruv, bolalar, maktabgacha ta'lim tashkiloti, pedagog kadrlar.

**Ключевые слова:** инновация, образование, технология, процесс, управление, дети, организация дошкольного образования, педагогический коллектив.

**Key words:** innovation, education, technology, process, management, children, preschool education organization, teaching staff.

Bugungi kunga qadar innovatsiyalarni boshqarish tushunchasi asosan jarayonga yo'naltirilgan yondashuvlar bilan tavsiflanadi. Kompaniya maqsadlariga erishish uchun Biroq, yaqin kelajakda zamonaviy raqamli innovatsiya jarayonlari ham birinchi o'rinda turadi. Innovatsion boshqaruvning muhim jihatlaridan biri innovatsion g'oyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishdir. Zamonaviy innovatsion boshqaruv doimiy o'zgarishlarga duchor bo'ladi. Qattiq innovatsion jarayonlar o'tmishda qoldi va tobora ochiq innovatsiyalar yoki birgalikda yaratish kabi zamonaviy usullar bilan almashtirilmoqda. Samarali innovatsion madaniyatni rivojlantirish kompaniyaning innovatsion qobiliyatini oshirishda muhim nuqta hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, samarali innovatsiyalarni boshqarishning asosiy e'tibori birinchi navbatda iqtisodiy va biznesni boshqarish istiqbollari qaratilgan. Vazifasi g'oyalar va innovatsiyalarni rivojlantirish bo'lgan ijodkorlikdan farqli o'laroq, innovatsiyalarni boshqarish ushbu

g'oyalardan amaliy foydalanishga, shuningdek ularni kundalik biznes operatsiyalarida amalga oshirishga qaratilgan. Innovatsiyalarni boshqarish korporativ strategiyaning muhim tarkibiy qismi bo'lib, turli sohalarga taalluqlidir. Innovatsiyalarsiz hech qanday kompaniya rivojlanishda davom etmaydi va shuning uchun juda qisqa vaqt ichida raqobatbardosh bo'lolmaydi. Raqamlashtirish kabi zamonaviy tendensiyalar doimiy ravishda yangi standartlarga moslashtirilishi kerak bo'lgan jarayonlarni doimiy yangilashni talab qiladi. Shunday qilib, har xil turdagi innovatsiyalarni ishlab chiqish kompaniya yoki tashkilotning kelajakdagi hayotiyiligini ta'minlash uchun zarurdir. An'anaviy biznes modellari, ehtimol, agar ular innovatsion o'zgarishlar bilan yanada rivojlantirilmasa, raqamlilik davrida tez orada eskiradi. Innovatsiyalarni boshqarishning asosiy vazifalari buzuvchi innovatsiyalarni amalga oshirishni ham o'z ichiga oladi. Buzuvchi innovatsiya - bu yangi texnologiya yoki biznes modeli asosida ishlab chiqilgan jarayon. Buzg'unchi innovatsiyalar ko'pincha dastlab kam e'tibor qaratiladigan, lekin keyinchalik dominant bozor omiliga aylangan va allaqachon mavjud bo'lgan loyihalarda uchraydi. belgilangan tartiblarni siqib chiqarishi mumkin.

XX asr innovatsion menejment rivojlanishi boshlangan davr. Uning shakllanish bosqichlari unchalik ko'p emas edi, lekin ularning barchasi taraqqiyot sari aql bovar qilmaydigan qadam tashladi va bor-yo'g'i bir asr ichida jamiyatni qanday yaxshilash va biznesni yanada foydali qilish haqidagi butun fanga aylandi. Bu qadamlarga quyidagilar kiradi:

- Bozor hali turli xil tovarlar bilan to'yinmagan bo'lgan ommaviy ishlab chiqarish davri (XX asrning birinchi uchdan bir qismi).
- Ommaviy marketing davri, uning kontseptsiyasi Buyuk Depressiyadan keyin AQSH iqtisodiyotini tiklashga qaratilgan (XX asr o'rtalarigacha davom etgan).
- Ilm-fan va axborot texnologiyalaridan kelib chiqqan postindustrial davr (XX asrning ikkinchi yarmida boshlanib, hozirgacha davom etmoqda).

**Innovatsiya**- yangi ilmiy bilimlarni, qandaydir kashfiyotlarni, ixtirolarni olishga qaratilgan tadqiqot faoliyatidan foydalanish orqali rivojlanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalarning paydo bo'lishi loyihalash ishlarining natijasi bo'lishi ham mumkin. Bunda mavjud ilmiy nazariyalar va tushunchalar asosida amaliy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini aks ettiruvchi instrumental va texnologik bilimlar rivojlanadi. Shunday qilib, innovatsion loyihalar yaratiladi, bu esa keyinchalik yangi texnologiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. "Ta'lim" tushunchasi (arabcha "ilm olmoq" – o'qish, o'rganish hamda hayotiy tajriba asosida orttirilgan bilim va malakalar majmui) bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli xildagi o'quv tashkilotlarida o'qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham anglatadi. Chunki ta'limning

mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma'lumotga bo'lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim haqidagi pedagogik g'oyalarga qarab kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida ta'limning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o'zgarib yanada takomillashib borgan.

**Ta'lim** - mashg'ulot berish jarayonini, ya'ni pedagog (o'qituvchi) faoliyatini, umuman, bolaning bilish, o'rganish faoliyatiga rahbarlik qilishni hamda uqish jarayonini, ya'ni bola faoliyatini bildiradi. Ta'lim jarayoni - ta'lim beruvchi — pedagog va ta'lim oluvchilar faoliyatining yig'indisidan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsning sifatlari, dunyoqarashi, qobiliyati o'sadi. Ta'lim avlodlar o'rtasidagi ma'naviy vorislikni ta'minlaydi: kishilarning ijtimoiy, tarixiy tajribalari yosh avlodga ta'lim orqali o'tadi. Ta'lim haqida turli nazariyalar mavjud. Ba'zi nazariyalar ta'limni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga bog'liq bo'lmagan 11 hodisa sifatida baholasalar, ba'zilar ta'limning sinfiy xarakterga ega ekanligini, u jamiyatning har bir a'zosida muayyan siyosiy, falsafiy, axloqiy, huquqiy qarashlarni shakllantirish maqsadi sari qaratilganligini ta'kidlaydi. Ta'limning maqsadi obyektiv hayot talablariga muvofiq holda o'zgarib borgan kabi, ta'limning xarakteri, yo'nalishi ham uning maqsadiga muvofiq o'zgarib boradi. Ta'lim dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatlar jarayonidir. Ta'lim bilish qobiliyatlari, his-tuyg'ular, idrok, shaxsni tarkib toptiruvchi kuchli omildir. Ta'lim jamiyat qurilishining muhim muammolarini hal qilish — jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, jamiyatning yangi a'zosini tarbiyalashga yordam beradi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida turli xil maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavjud, takomillashtirilgan pedagogik texnologiyalar va usullar yuzaga kelib, amalda qo'llanilmoqda, innovatsion faoliyat ommalashmoqda. Asosan maktabgacha ta'limning yo'nalish va talablari o'zgartirilmoqda. Aynan shuning uchun ta'lim muammolarini zamonaviy darajada hal eta oluvchi yangi avlod direktori zarur.

Yangi turdagi direktor jamoa bilan ishlashda tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirishi, ularning qobiliyatlari, shuningdek ehtiyojlari va kasbiy talablarini hisobga olishi kerak. Direktor uchun xodimlarning tashabbusini ma'qullash, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga hissa qo'shish, shuningdek, har bir xodimini harakatga unday olishi muhimdir. Bugungi kunda zamonaviy pedagogik ta'sir ko'rsatish uslublariga ega, bundan tashqari boshqaruv mahoratini biluvchi mutaxassis zarur.

**Ta'limdagi innovatsiyalar** esa o'qitish va o'rgatish sohasidagi innovatsiyalarning paydo bo'lishiga qaratilgan kompleks tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu innovatsiyalar ta'lim jarayonini tashkil etishning usul va uslublari, ta'lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan resurslar, ilmiy nazariyalar va tushunchalarni ifoda etadi.

Innovatsiyalar ta'lim faoliyati jarayonida ham rivojlanadi. O'quv jarayonida bilim oluvchilarning nazariy va amaliy bilimlari rivojlanadi, keyinchalik ular amaliy hayotning innovatsiyalar yaratish bilan bog'liq turli sohalarda qo'llanilishi mumkin.

Haqiqiy pedagog kadrning shakllanishi pedagog kadrning bolani tushuna olish qobiliyatidan boshlanadi. Agar pedagog kadr bolaning ma'naviy dunyosini tushunishga harakat qilmasa, u holda kelajakda u endi ta'lim va ijtimoiylashuv jarayoniga ta'sir ko'rsata olmaydi. Boshqaruv faoliyati jarayonida boshqaruvchida, albatta, turli xil muammolar uchraydi va u mazkur muammolarni samarali hal qilish darajasi orqali uning vakolat darajasini aniqlash mumkin. Boshqaruv vakolati rivojlanishi nafaqat o'z-o'zini rivojlantirish va boshqaruvchi faoliyatida tajriba orttirish, balki boshqaruvchining malakasini oshirish, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining kasbiy qayta tayyorgarligiga bog'liq.

Zamonaviy innovatsion jarayonlar juda murakkab va muqarrardir. Ular boshqaruvning istalgan sohasida rejalashtirishni takomillashtirish, boshqaruv organlarining tuzilishi va funksiyalari, kadrlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish muhimdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurmatov, A., & Melibayeva, R. (2022). Boshqaruv psixologiyasi.
2. Anyinin VM, Dagaev AA Innovatsion boshqaruv. M.: Delo, 2003.527 p.
3. Afanasyev M., Myasnikova L. Jahon raqobati va iqtisodiyotning klasterlanishi // Vopr. iqtisodiyot. 2005. № 4. S. 75-81
4. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. T.: 2020 y
5. M.A.Abdullayeva Maktabgacha ta'limni boshqarishning ilmiy asoslari. O'quv qo'llanma 2020-y
6. N.Sh.Mavlonov The impact of the use of digital technologies on improving the quality of work of preschool organizations// <https://doi.org/10.5281/zenodo.8036458>.

## YANGI O‘ZBEKISTONDA ZAMONAVIY RAHBARNING ROLI

*Umarova Zebo Hayitmurodovna*  
*Samarqand viloyati Samarqand shahar*  
*54-son DMTT direktori*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada naktabgacha ta’limda ta’lim samaradorligini oshirishda rahbarning roli va rahbar faoliyatni qanday olib boorish kerakligi aytib o‘tilgan.

**Аннотация:** В этой статье упоминается роль лидера в повышении эффективности обучения в дошкольном образовании и способы ведения лидерской деятельности.

**Abstract:** In this article, the role of the leader in improving the effectiveness of education in pre-school education and how to conduct leadership activities are mentioned.

**Kalit so‘zlar:** rahbar, imidj, qobilyat, faoliyat, boshqaruv tizimi, **kompetentlik**, Rahbar kompetentligi.

**Ключевые слова:** лидер, имидж, способности, деятельность, система управления, компетентность, Лидерская компетентность.

**Key words:** leader, image, ability, activity, management system, competence, Leader competence.

### Zamonaviy rahbar qanday bo‘lishi kerak:

✚ Hozirgi vaqtda axborot sirini saqlash yoki axborot resurslariga kirishni cheklash haqida gapirish mantiqsiz. Bugungi kunda aniq va to‘liq ma’lumot nafaqat rahbarga, balki u boshchiligidagi butun jamoaga ham tegishli bo‘lishi kerak. Bu xodimlarning ulardan nimani talab qilishlarini aniq bilishlari va tushunishlari hamda mavjud bo‘lgan barcha axborot resurslaridan to‘liq foydalanishlari uchun zarur shartdir, shunda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nafaqat hozirgi vaqtga to‘g‘ri keladi, balki ertangi kun uchun ham istiqbolli bo‘ladi.

✚ Hozirgi vaqtda axborot sirini saqlash yoki axborot resurslariga kirishni cheklash haqida gapirish mantiqsiz. Bugungi kunda aniq va to‘liq ma’lumot nafaqat rahbarga, balki u boshchiligidagi butun jamoaga ham tegishli bo‘lishi kerak. Bu xodimlarning ulardan nimani talab qilishlarini aniq bilishlari va tushunishlari hamda mavjud bo‘lgan barcha axborot resurslaridan to‘liq foydalanishlari uchun zarur shartdir, shunda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nafaqat hozirgi vaqtga to‘g‘ri keladi, balki ertangi kun uchun ham istiqbolli bo‘ladi.

✚ Jamoaning to‘g‘ri motivatsiyasi, har bir xodimning yakuniy natijasiga qiziqishni oshirish - zamonaviy rahbar buni yaxshi bilishi kerak. U o‘z vakolatlarini



kengaytirish, uni boshqaruv masalalarini hal qilishga jalb qilish uchun har bir xodimining muvaffaqiyatini ta'minlashi kerak. O'zining qadr-qimmatini his qilgan holda, har bir xodim o'z iste'dodi va imkoniyatlarini maksimal darajada oshirishi mumkin, o'zini o'zi anglash uchun to'siqlarni ko'rmaydi. Rahbar maqsadni aniq ko'rishi, uni shakllantira olishi va o'z jamoasini muvaffaqiyatga erishishi kerak.

✚ Shu bilan birga, u tashkilotning asosiy qiymati mutaxassislar, yuqori malakali odamlar ekanligini tushunishi kerak. Bu shuni anglatadiki, u har birining jamoada ishlashini sozlashi kerak, shunda orkestr singari har biri o'z rolini o'ynaydi, lekin ular birgalikda uyg'un va uyg'unlashadi.

✚ Boshqaruv uslubi vaqt talablariga javob beradigan yaxshi rahbar nafaqat vazifalar qo'yadi va ularning bajarilishini nazorat qiladi, balki namuna ham ko'rsatadi. Ha, buning uchun siz nafaqat uning xodimlari o'z ishlarida foydalanadigan barcha vositalarni o'zlashtiribgina qolmay, balki yangi usul va usullarni o'z jamoalari a'zolariga o'rgatish bilan birga doimiy ravishda joriy etishingizga to'g'ri keladi.

✚ Bugungi kunda etakchi bo'lgan rahbar yangi narsalarni o'rganishdan qo'rqmasligi kerak, demak u qo'rqmaslik va xatoga yo'l qo'yimaslik kerak. Asosiysi, buni o'z vaqtida payqash, tuzatish va jasorat bilan tan olish. Bu rahbarni umuman zaiflashtirmaydi, chunki ba'zilar o'xshab ko'rinadi, aksincha vakolatni mustahkamlashga yordam beradi.

### **Rahbar- bu kim?**

- Ta'limiy samaradorlikni oshirishda yetakchi bo'lishi lozim.
- Rahbar ijtimoiy shaxs sifatida ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish resurslarini birlashtirib, uning asosiy harakatlantiruvchi kuchini boshqaruvchi sifatida omilkorlik bilan ish yurituvchi shaxsdir.
- Rahbar har qanday ishni amalga oshirish uchun, avvalo, mustaqil qaror qabul qiladi. Bu qaror rahbarning tadbirkorlik, ishbilarmonlik faoliyati maqsadini belgilaydi.
- Rahbar o'z sohasiga yangi g'oya, yangi tashabbus, yangi texnologiyalarni joriya etuvchi tadbirkor shaxsh hisoblanadi.
- Rahbar mehnati, ayni vaqtda tadbirkorlikka asoslangan mashaqqatli faoliyat hisoblanadi, unga sarflangan kuch, maglag' ba'zan vaqtincha foyda emas, zarar keltirish, muassasa foyda o'rniga zarar ham ko'rishi mumkin. U bunday holatlarni oldindan ko'ra olishi va bunga tayyor turishi, zarur bo'lganda, faoliyatini qayta boshlashi, o'zida bunga kuch-g'ayrat topa bilishi lozim. Ta'lim muassasasi rahbarlari ta'lim-tarbiya jarayonini kompetentli boshqarish jarayonida o'ziga xos vazifalarni bajarishi talab qilinadi: loyihalashtirish, tashkillashtirish, tahlil qilish, nazorat qilish va motivatsiyalash. Rahbar ushbu vazifalarning hammasini o'zaro uyg'unlashtirgan holda o'z faoliyatini amalga oshirishi darkor.

**Yana bir muhim jihat, rahbar imidji qanday bo'lishi kerak?** Avvalo, imidj atamasiga e'tibor qaratamiz. Imidj – (ing. imij – qiyofa, tasvir) odamlar ongida muayyan shaxs, tashkilot yoki boshqa ijtimoiy ob'ektga nisbatan yuzaga keluvchi, idrok etilayotgan ob'ekt haqidagi axborotni o'zida mujassamlashtirgan va ijtimoiy xulq-atvorga da'vat etadigan muayyan sintetik obraz. Zamonaviy rahbar imidjini yaratish – bu uning yuzi, kiyinishi, qalbi, sog'lom fikri, muomala madaniyati, boshqaruvchilik san'atini mukammal egallaganligi, kompetentlik: bilimi, tafakkuri, kasbiy mahorati, farosati, kamtar, xushmuomalalik kabi insoniy fazilatlarini, go'zallik, axloqiylik, o'git va ibrat, ustoz va shogird an'alariga tayangan holda insonning nufuzini ko'tarish, obro'yini oshirish, hurmatga sazovor bo'lishidir.

Boshqaruv tizimida rahbar xodimning faoliyati muhim o'rin egallaydi. Bu esa, o'z tavsifi bo'yicha siyosiy va mumtoz faoliyatdir. Rahbar xodim davlat ko'rsatmalarini ro'yobga chiqaradi, u xo'jalik tizimida davlatning vakili hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, haqiqiy rahbar xodim Ushbu jamoaning ilg'or kishisi bo'lib, u o'z korxonaga va tashkilotining foydasini ko'zlovchi va korxonaga sha'nini himoya qiluvchi shaxsdir.

**Hech kim rahbar bo'lib tug'ilmaydi, faqat o'zi** – sidqidildan qilgan mehnat va uning samarali natijalari bilan shaxs o'zining rahbarlikka loyiq xususiyatini namoyon qiladi. Rahbar xodim mehnatning muhim omili - qaror qabul qilish va uni bajarishda har xil boshqaruv apparati bo'g'inlari harakatini to'g'ri yo'naltirishdan iboratdir. Shunday ekan, rahbar butun bir jamiyatni harakatga keltiruvchi kuch sifatida o'z sohasini mukammal darajada bilishi, bilim va malakaga ega bo'lishi, hamisha zimmasiga yuklatilgan vazifasini yodida saqlashi va aslo xatoga yo'l qo'ymasligi kerak. Bu borada rahbar o'z kompetentsiyasiga ega bo'lishi juda muhim ahamiyatga ega.

**Xo'sh, kompetentlik o'zi nima?** Rahbar kadrlar kompetentligi to'g'risida juda ko'plab fikrlar mavjud bo'lib, ularning barchasi mazmunan va shaklan turlicha talqin qilinadi. Bizning fikrimizcha, kompetentlik – bu soha egasining kasbiy bilim, ko'nikma, malaka, shuningdek, shaxsiy sifat va fazilatlar integratsiyasidir. Demak, rahbar nazariy bilim va amaliy ko'nikmaga ega bo'lishi, shuningdek, uning qanday strategiya va usullarni qo'llashi, muomala madaniyati, jamoasiga nisbatan motivatsiyasi, histuyg'ulari, boshqarish jarayonidagi murakkab muammolarni hal qila olishi uning kompetentligini belgilab beradi. Bu borada ilg'or tajribalar asosida ishlab chiqilgan xulosalarga tayanish ham katta ilmiy-amaliy maktab hisoblanadi. Ta'lim muassasasi rahbarlari ta'limtarbiya jarayonini kompetentli boshqarish jarayonida o'ziga xos vazifalarni bajarishi talab qilinadi: loyihalashtirish, tashkillashtirish, tahlil qilish, nazorat qilish va motivatsiyalash. Rahbar ushbu vazifalarning hammasini o'zaro uyg'unlashtirgan holda o'z faoliyatini amalga oshirishi darkor. Rahbar kompetentligida motivatsiya muhim ahamiyatga ega. U o'z jamoasida faoliyatni

adolatli amalga oshirishi, xodimlarining qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishi va yutuqlarini rag'batlantirishi muhim vazifalaridan biridir. Rahbar kerakli vaziyatda o'z xodimlarini ish faoliyatini yanada oshirish maqsadida ularga turli usullar bilan motivatsiya berib borishi kerak: samarali ishi va erishgan yutuqlari uchun xodimlarini rag'batlantirishi, turli mehnat orqali motivatsiya berishi, xodimlari bilan o'zaro muloqotni kuchaytirishi, ular bilan chin dildan suhbat qilishi va lozim bo'lgan vaziyatlarda jazolash usulini ham qo'llashi kerak. Albatta, bular rahbarning vazifasi hisoblanadi va ish faoliyatining samaradorligini ham oshiradi.

Rahbar kompetentligida motivatsiya muhim ahamiyatga ega. U o'z jamoasida faoliyatni adolatli amalga oshirishi, xodimlarining qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishi va yutuqlarini rag'batlantirishi muhim vazifalaridan biridir. Rahbar kerakli vaziyatda o'z xodimlarini ish faoliyatini yanada oshirish maqsadida ularga turli usullar bilan motivatsiya berib borishi kerak: samarali ishi va erishgan yutuqlari uchun xodimlarini rag'batlantirishi, turli mehnat orqali motivatsiya berishi, xodimlari bilan o'zaro muloqotni kuchaytirishi, ular bilan chin dildan suhbat qilishi va lozim bo'lgan vaziyatlarda jazolash usulini ham qo'llashi kerak. Albatta, bular rahbarning vazifasi hisoblanadi va ish faoliyatining samaradorligini ham oshiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, rahbar xodimlar o'zining ish yuritish uslublarini turli xil darajada amalga oshiradilar. Bunga juda ko'plab misollar ham keltirishimiz mumkin. Har bir rahbar o'zining imidji orqali boshqa xodimlarni o'ziga jalb qila olishi, o'zining ish uslubini ham shu orqali o'zgalarga yaxshi tushuntira olishi va shu bilan birgalikda imidji orqali boshqaruv jarayonini yaxshi yo'lga qo'ya olishi mumkin. Chunki, rahbar eng avvalo o'zini tushunishi, o'zining ish uslubini, tashqi qiyofasini o'zi yaratib olishi zarur. Rahbar nazariy bilim va amaliy ko'nikmaga ega bo'lishi, shuningdek, uning qanday strategiya va usullarni qo'llashi, muomala madaniyati, jamoasiga nisbatan motivatsiyasi, histuyg'ulari, boshqarish jarayonidagi murakkab muammolarni hal qila olishi uning kompetentligini belgilab beradi.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. K.A. Mamatkulova Ta'lim tizimida rahbar va boshqaruv kadrlarga qo'yilgan zamonaviy talablar. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10810242>
2. M.SHarifxo'jaev, Yo.Abdullaev "Menejment" Toshkent. "Mehnat" 2000 y.
3. SH.N. Zaynutdinov va boshqalar. Menejment asoslari. T. Moliya-2001y.
4. R.I.Gumish, Matmurodov F.I. Innavatsion menejment Toshkent 2008 y.
5. Matmurodov F.I. Ma'muriy menejment Toshkent 2008 y.

## ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

*Жумамуратов Саламат Жумабай улы*  
*Қорақалпоғистон Республикаси ИИВ ЖХХХПБ*  
*ўринбосари ХП фаолиятини ташкил этиши*  
*бўлими бошлиғи, майор*

**Аннотация:** ушбу мақолада жамоат хавфсизлигини таъминлаш, профилактика инспекторлари фаолиятини такомиллаштиришнинг ҳуқуқий асослари, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва жиноятчиликка қарши курашишнинг яхлит тизимини шакллантириш усуллари ҳақида илмий баён қилинган.

**Таянч сўзлар:** жамоат хавфсизлиги, жиноятчилик, профилактика, ички ишлар органлари, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси.

**Аннотация:** в данной статье представлены научные положения о методах обеспечения общественной безопасности, правовых основах совершенствования деятельности инспекторов-профилактиков, предупреждении правонарушений и формировании комплексной системы борьбы с преступностью.

**Ключевые слова:** общественная безопасность, профилактика преступности, органы внутренних дел, профилактика преступности.

**Abstract:** in this article, there is a scientific statement about the methods of ensuring public safety, the legal basis of improving the activities of preventive inspectors, the prevention of offenses and the formation of a comprehensive system of combating crime.

**Key words:** public safety, crime prevention, internal affairs bodies, crime prevention.

Ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга ошириш ва жиноятчиликка қарши кураш эса бугунги куннинг долзарб вазифаларидан биридир. Жамият ҳар доим ривожланишда бўлганидек, ҳуқуқбузарлик ҳам ривожланиб, мураккаблашиб ва такомиллашиб боради. Шунинг учун ҳам бугунги кунда содир этилаётган ҳуқуқбузарликларнинг профилактикасини амалга ошириш ва жиноятларни очиш борасида хизмат олиб бораётган ички ишлар органлари қолаверса барча ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг фаолиятини такомиллаштириш давр талабидир. Шуни алоҳида такидлаш керакки, ҳуқуқбузарликларнинг профилактикасини амалга ошириш, ҳуқуқбузарликлар содир этган шахсларни жазолашдан афзалдир, яъни ҳуқуқбузарликларнинг содир этилиши натижасида фуқаролар, давлат ва жамият

ҳам иқтисодий, ҳам маънавий зарар кўради. Ҳуқуқбузарликларнинг профилактикасини амалга оширишда профилактика инспекторларининг фаолияти муҳим аҳамият касб этади. Ички ишлар органлари профилактика хизмати тизимида амалга оширилган ислоҳотлар ҳуқуқбузарликлар профилактикасини самарали ташкил этишда кенг имкониятлар яратиб берди. Ислоҳотлар жараёнида босқичма-босқич профилактика хизматлари фаолиятининг моддий-техник таъминоти яхшиланди, ушбу соҳага кадрларни тайёрлаш ва етказиб бериш сифати оширилди, профилактика хизмати ходимларининг ижтимоий-ҳуқуқий ҳимояси кучайтирилди ва натижада ҳуқуқбузарликлар ва жиноятларнинг олдини олишда кўзга кўринарли натижаларга эришилди. Натижада ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга ошириш соҳалар бўйича тақсимланди. Бу ўз навбатида ҳуқуқбузарликлар профилактикасини тўғри ва самарали ташкил этилиши ва амалга оширилиши имкониятини ошириш билан бир қаторда энг самарали усул ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг бевосита амалга оширувчи ва унда иштирок этувчи орган ва муассасаларнинг ҳамкорлигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.

Хусусан, жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасини такомиллаштириш борасида қуйидагилар ҳуқуқий асос ҳисобланади:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6196-сон Фармони;

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 02 апрелдаги “Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасидаги фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-5050-сон Фармони;

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сон Фармони;

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 - 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. Ўзбекистон Республикаси Президентимизнинг 2021 йил 29 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сон Фармони, аввало, мамлакатимиздаги кенг кўламли ислоҳотлар доирасида аҳолининг тинч-осойишта ҳаётини таъминлаш ҳамда

жамиятда қонун устуворлиги ва жамоат хавфсизлиги маданиятини шакллантиришга қаратилган.

Ўз навбатида, бугунги кунда жаҳонда кучайиб бораётган турли хавф-хатару зиддиятлар, тинчлик ва осойишталикка таҳдидлар, пандемия, табиий ва техноген офатлар давлат ҳамда унинг масъул органлари зиммасига янгидан-янги вазифалар юкламоқда. Бу эса жамоат хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва жинойтчиликка қарши курашишнинг яхлит тизимини шакллантириш, ички ишлар органларининг энг куйи бўғинидан республика даражасигача самарали фаолиятини йўлга қўйиш ва замонавий иш услубларини жорий этиш орқали мамлакатимизда ҳуқуқ-тартибот ва қонунийликни мустаҳкамлаш, аҳолининг тинчлиги ва осойишталигини таъминлашга қаратилган.

Шу жиҳатдан ички ишлар органларининг фаолиятини янада такомиллаштиришга йўналтирилган умумий вазифалар фармонга мувофиқ белгиланган:

1. Ички ишлар органлари фаолиятини ташкил этишнинг мутлақо янги механизмларини белгилашни;

2. Ички ишлар органларининг таянч пунктлари негизида маҳалла ҳуқуқтартибот масканлари босқичма-босқич ташкил этишни;

3. Профилактика инспекторига масофадан туриб мурожаат юбориш ва уни кўриб чиқиш жараёнини кузатиб бориш, аҳоли билан ўзаро тезкор мулоқотни йўлга қўйиш, профилактика инспекторлари ва сектор раҳбарлари фаолиятига баҳо бериш имконини берувчи «Smart маҳалла» ахборот дастури амалиётга тадбиқ этишни;

4. Туман ва шаҳар ички ишлар органлари фаолиятининг самарадорлигини оширишни;

5. Ички ишлар вазирлиги тузилмасини такомиллаштириш орқали турдош соҳавий хизматлар фаолиятини бошқариш ва мувофиқлаштиришнинг ягона тизимини жорий этишни;

6. Ҳудудий ички ишлар органларининг тузилмаси ва раҳбар лавозимларини мақбуллаштириш орқали мавжуд куч ва воситалардан самарали фойдаланишни таъминлашни;

  8. Рустамова Ш.А. «Республикамизда болаларда ўткир юқумли ичак касалликларининг иқлимий ўзгаришлар билан боғлиқлигини таҳлил қилиш (Самарқанд вилояти микёсида)». Биология ва тиббиет муаммолари илмий амалий журнал. №3 (128) 2021 С.102-107.
  9. Фазульязнова А.И., Ткачева С.В., Сагитова А.Ш., Рахманова О.А. Антибиотикорезистентность распространенных штаммов сальмонелл и шигелл. Практическая медицина. 2020. Том 18, № 4, С. 88-90)
  10. Шодиева Д.А., Ташпулатов Ш.А., Джумаева Н.С. Внешнее дыхание при ботулизме у детей в зависимости от степени тяжести основного процесса Журнал «Вопросы науки и образования» №6 (131), 2021 с-35-43.
  11. Шодиева Д.А., Ташпулатов Ш.А. “Болаларда ботулизм касаллигининг оғирлик даражасига боғлиқ ташқи нафас тизими томонидан кузатиладиган ўзгаришлар” ПБИМ 2021. №5 (130) с-151-154
  12. Anvarovna Y. N. et al. Clinical and Epidemiological Characteristics of Shigellosis in Adults at the Contemporary Stage //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 311-318.
  13. Egorova S., Kaftyreva L., Grimont P.A., Weill F.X. Prevalence and characterization of extended-spectrum cephalosporin-resistant nontyphoidal Salmonella iso- lates in adults in Saint Petersburg, Russia (2002-2005). Microb Drug Resist 2007;13(2):102-7.
  14. Parry C.M., Ho V.A., Phuong L.T., et al. Randomized controlled comparison of ofloxacin, azithromycin and ofloxacin-azithromycin combination for treatment of multidrug-resistant and nalidixic acid-resistant typhoid fever. Antimicrob Agent Chemother 2007; 51:819-25.
  15. Varma J.K., Molbak K., Barrett T.J., Angulo F.J., et al. Antimicrobial-resistant nontyphoidal Salmonella is asso- tiated with excess bloodstream infections and hospital- izations. J Infect Dis 2005;191:554-61.

## САЛМОНЕЛЛЁЗ КАСАЛЛИГИНИНГ ДАВОЛАШГА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВ

*Бахриева Зебунисо Джалолидиновна*

*Самарқанд Давлат тиббиёт университети,  
Ўзбекистон Республикаси, Самарқанд шаҳри;*

В данной статье описаны особенности возбудителей сальмонеллеза, их резистентность к антибиотикам, эффективность некоторых антибиотиков. Рассмотрены аспекты антибиотикорезистентности распространенных штаммов возбудителей сальмонелл. Описаны инструкции по подбору противомикробных препаратов, способы применения. Обсуждаются особенности антибактериальной терапии на современном этапе.

**Ключевые слова:** сальмонелла, Salmonella Enteritidis, резистентность, антибактериальная терапия.

This article describes the features of salmonellosis pathogens, their resistance to antibiotics, the effectiveness of some antibiotics. Aspects of antibiotic resistance of common strains of Salmonella pathogens are considered. Instructions for the selection of antimicrobial drugs, methods of application are described. The features of antibiotic therapy at the present stage are discussed.

**Key words:** salmonella, Salmonella Enteritidis, resistance, antibiotic therapy.

Болалар орасида ўткир ичак инфекциялари (ЎИИ) ўткир респираторли инфекциялар ва гриппдан кейин туриши билан етакчи ўринни эгаллашда давом этмоқда. Ўткир диарея касалланиш ва ўлим даражаси бўйича дунёда иккинчи ўринда туради. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти (ЖССТ) маълумотларига кўра, ЎИИ касалланиш ҳолатлари билан ҳар йили тахминан 2 миллиардга яқин ҳолат қайд қилинади [3, 14, 15]. Вирус этиологияли ичак инфекцияларининг кенг тарқалишига қарамасдан, бактериал инфекциялардан салмонеллёз касаллиги бугунги кунгача мамлакатимизда ўз аҳамиятини йўқотмаган. Салмонеллез касаллиги тарқалиш частотаси (шигеллездан кўра кўпроқ), касаллик оғирлик даражаси, касаллик салбий оқибатлар келиб чиқиш эҳтимоли, шу жумладан бактериянинг узок муддат давомида ажралиб туриши ва сезиларли иқтисодий зарар келтириши билан ўз аҳамиятини йўқотмаган. Салмонеллёз касаллигининг болалар орасида кенг тарқалганлик даражаси вақтинчалик ногиронлик, даволаниш харажатлари билан боғлиқ катта иқтисодий йўқотишларга олиб келади. Салмонеллёз касаллиги бўйича эпидемик ҳолат нафақат Ўзбекистон республикасида, балки бошқа хориж давлатларида, жумладан, иқтисодий ривожланган мамлакатларда ҳам ноҳуш бўлиб қолмоқда. Сўнгги 30 йил ичида

адабиётларда салмонеллэзнинг этиологик ўзгаришлари ҳақида кўпгина маълумотлар тўпланган [3,5,16].

Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти томонидан эълон қилинган ўткир ичак инфекцияларини даволаш соҳасида тадқиқот ва ишланмалар рўйхатида кўзгатувчилардан салмонелла ва шигелла юқори даражадаги устуворликни эгаллайди [8,9,13].

Кўпчилик тадқиқотчиларнинг фикрича, салмонеллаларга қарши курашиш ва уларнинг олдини олиш маълум омиллар сабабли қийинчиликлар туғдириши мумкин, бу энг аввало, бактериянинг биологик хусусиятлари, озуқа маҳсулотларининг сақлаш технологияси бузилиши билан боғлиқ. Салмонеллез касаллигининг табиатда кенг тарқалишига салмонеллалар кўп сонли серовариантларининг мавжудлиги; кўзгатувчи патоген омилларининг полидетерминентлиги; касалликнинг полиэтиологик эканлиги, антибактериал дори воситаларининг асосиз кенг қўлланилиши натижасида кўпгина дори шаклларига чидамли бўлган штаммларнинг циркуляцияси ҳисобланади. Салмонеллэз инфекциясининг олдини олиш, ташхислаш ва даволашни қийинлаштирувчи муҳим омиллардан бири, салмонеллаларнинг ташқи муҳитга чидамлилиги ва ўзгарувчанлиги, унинг ноқулай шароитга мослашиш қобилиятининг кучлилиги ҳисобланади.

Салмонеллэз касаллигининг этиотроп терапияси антибактериал дори воситалари ҳисобланади. Салмонеллез касаллигида антибиотикларга нисбатан резистентликнинг ўсиб бориши соғлиқни сақлашнинг долзарб муаммосидир. Антибиотикларга резистентликнинг пайдо бўлиши ва доимий равишда кенг тарқалган турли антибиотикларга нисбатан аниқланиши ҳар доим ҳам асосли эмаслиги билан боғлиқ. Тадқиқотлар натижасида, салмонеллаларнинг тахминан 5% беш ёки ундан ортиқ антибиотик турларига чидамли эканлиги аниқланилди.

Катталарда салмонеллэз касаллигини даволаш бўйича клиник кўрсатмаларга мувофиқ қуйидагилар қўлланилади: фторхинолонлар, 2-авлод цефалоспоринлар, 3-авлод. авлод цефалоспоринлар, аминокликозидлар, сульфаниламидлар ва б. [2, 9, 15]. АҚШ касалликларни назорат қилиш ва олдини олиш марказлари (СДС) томонидан олиб борилган тадқиқотларга кўра, салмонеллез касаллигида гентамицин, амикацин, ампициллин ва триметоприм + сульфаметоксазол каби анъанавий биринчи даражали дориларга чидамлилик ошиши муқобил дориларни қўллаш заруратига олиб келди. Салмонеллез касаллиги чидамли штаммлари келтириб чиқарадиган бактериал инфекциялар сезгир бактериялар келтириб чиқарган инфекцияларга қараганда узоқроқ давом этиши мумкин, бундан ташқари, даволаш харажатларининг ошиши кузатилади [7,9,10,14].

1970 йилларда касалланишнинг энг юқори чўққиси *Salmonella typhimurium* туфайли содир бўлди, у асосан болалар шифохоналарида кенг тарқалди ва антибактериал дориларга нисбатан полирезистентлиги билан ажралиб турди. Амалиётда болалар шифохоналарида ва клиник бўлимларида *Salmonella typhimurium* нинг дориларга резистентлиги, клиник кечиши, даво муолажаларининг ушбу инфекцияга таъсири кўрсатиб ўтилган ва яхши ўрганилган. Ўтказилган тадқиқотлар натижасида, сальмонеллез кўзғатувчилари орасида юқори сезгирлик аминогликозидлар (амикацин) - 98%, сульфаниламидлар (бисептол) - 97,5% цефалоспоринлар биринчи ва иккинчи авлодига (цефазолин ва цефтриаксон) 95,02% нисбатан аниқланилди. Айрим тадқиқотларда, сальмонелла кўзғатувчилари сероварлари орасида антибиотикорезистентликни таҳлил қилиш чоғида нитрофуранларга нисбатан резистентлиги аниқланилди.

1980 йилларнинг ўрталаридан бошлаб, юқори вирулентли *Salmonella enteritidis* тури кўп учрайди. То ҳанузга қадар *Salmonella enteritidis* томонидан чақирилган касаллик ўз аҳамиятини йўқотмаган. Салмонеллез касаллигининг бу тури айни дамда кўп ҳудудларда кенг тарқалган.

*S. Enteritidis* кўзғатувчиси томонидан чақирилган касаллик, унинг давоси ҳақида адабиётларда қилинган ишлар жуда камчиликни ташкил этади. Салмонеллез кўзғатувчисининг муҳим микробиологик хусусиятларидан бири антибиотикларга сезгирлигидадир. Касалликнинг бу тури асосан катталар ва катта ёшдаги болалар орасида озиқ-овқат орқали юқиши кузатилган. Охириги йилларда кўзғатувчининг бу тури кичик ёшдаги болалар орасида ҳам учраши қайд этилмоқда. Ҳозирги кунда турли ҳудудларда салмонеллез кўзғатувчиларининг, жумладан, *S. Enteritidis* нинг дори воситаларига чидамлилиги ҳақидаги маълумотлар кўп сонли эмас, бу борада қарама қарши фикрлар мавжуд. Антибиотик сезувчанлик кўзғатувчининг ажралиш сони ва вақти билан боғлиқ. Бироқ, болаларда сўнгги йилларда *Salmonella Enteritidis* чақирган салмонеллезнинг клиник кўриниши ва унинг эволюцияси етарлича ўрганилмаган. Адабиётларда *S. Enteritidis* касаллигида кенг ишлатиладиган антибиотикларга нисбатан резистентлиги ҳақида маълумотлар мавжуд [3,9], шунинг учун касалликнинг оғир шакллари даволашда бошқа антибактериал воситалар ва резерв гуруҳдаги препаратларни излаб топиш долзарблигича қолмоқда. Шу сабабли, болаларда *S. Enteritidis* томонидан чақирилган салмонеллез касаллиги этиотроп давосида бошланғич ва “захира” препаратлари учун муқобил воситаларни излаш долзарб бўлиб қолмоқда. Болаларда ушбу муқобил дорилар учинчи авлод цефалоспоринлари бўлиши мумкин, чунки улар: микробларга қарши фаолликнинг кенг спектрига эга, б-лактамазаларга қарши бактерицид таъсир механизмига эга; организмдаги тўқималарда ва

суоқликларда яхши тўпланади; ёшга боғлиқ чекловлари йўқ; тўқималарга ва тана суоқликларига, шу жумладан сафрога кириб бориши билан юқори самарадорликка эга; оғиз орқали ва парентерал юбориш учун дозалаш шакллари мавжуд. Даволашнинг қисқа курсларида зарарсизлиги хисобланади. [1,9,16]. Бундан ташқари, юқорида айтиб ўтганимиздек, S. Enteritidis учинчи авлод цефалоспоринларига юқори сезгирлигича қолмоқда. Бироқ, адабиётларда болаларда салмонеллэз касаллигини даволашда уларнинг самарадорлиги ҳақида бир нечта хорижий маълумотлар берилган, холос. Цефалоспорин қатори III ва IV авлод антибиотикларнинг салмонеллэз касаллигини даволашда самарадорлиги ҳақида бугунги кунда жуда кам маълумот берилган [14,16].

Айрим нашрларда, III авлод цефалоспоринларни турли хил дозалаш шаклларида қўллаш тажрибаси уларнинг самарадорлигини кўрсатади, бу цефалоспоринлар касалликнинг оғир шаклларида ва касалхонага ётқизишнинг кейинги босқичларида кўпроқ буюрилганига қарамай, самараси «заҳира» дори воситаларидан кам эмас. Шу муносабат билан, III авлод цефалоспоринларни қўллаш алгоритми, касалликнинг турли оғирлик шаклларида қўлланилиши, ёшга оид хусусиятлари, ушбу гуруҳ антибиотикларнинг комбинациялашган шаклларида қўллаш усуллари етарлича ёритилмаган. Цефалоспоринларнинг учинчи авлод вакиллари орасида цефотаксим, цефтриаксон, цефтазидим, цефаперазон кенг қўлланилмоқда.

Салмонеллэз касаллигини даволашда фторхиналонларнинг фармакокинетик ўзига хослиги, юқори сингувчанлиги ва салмонеллаларнинг бу гуруҳ дори воситаларига нисбатан юқори сезувчанлиги сабабли эффективлиги тўғрисидаги маълумотлар мавжуд. [3,4,11,13]. Аммо бу препаратларнинг ёшга нисбатан қўлланилишидаги чегаралар болаларда қўллаш хавфсизлиги исботланган бўлса-да, ханузгача сақланиб турибди. Айрим манбаларда эътироф этилишича, бу гуруҳга кирувчи дори воситаларининг ёшга боғлиқ қарши кўрсатмаларини ҳисобга олган ҳолда, бошқа гуруҳ дори воситаларига нисбатан резистентлик аниқланилганда, заруриятга кўра шифокорлар консилиуми қароридан сўнг тавсия этиш мумкин.

Салмонелла кўзгатувчиларининг антибиотикларга ўсиб бораётган резистентлигини эътиборга олиб, асосланилмаган антибактериал қўллашнинг олдини олиш, дорилар самарасини ошириш мақсадида заҳира антибиотикларни қўллаш ва дозалаш алгоритминини ишлаб чиқиш лозим.

Хулоса. Шу нуқтаи назардан, антибиотикларга нисбатан резистентликнинг доимий ўсиши шароитида замонавий антибиотикларнинг афзалликларини аниқлашга қаратилган юқори сифатли тадқиқотларни ташкил этиш ва ўтказиш зарурати сақланиб қолмоқда. Юқорида айтилганларнинг барчаси S. Enteritidis нинг дори-дармонларга чидамлилигини, клиник ва эпидемиологик

хусусиятларини ўрганиш ва ҳозирги замон этиотроп давосини такомиллаштиришни кўрсатади.

**Калит сўзлар:** сальмонелла, Salmonella Enteritidis, резистентлик, антибактериал терапия

#### АДАБИЁТЛАР:

1. Бахриева З.Д., Жумаева Н.С., Узакова Г.З. Проблемы биологии и медицины Самарқанд вилояти Юқумли касалликлар клиник шифохонаси материаллари асосида ҳомиладор аёлларда салмонеллез касаллиги кечиш хусусиятларини таҳлил қилиш 2021. №1.1 (126). С.58-61.

2. Вафокулова Н.Х. «Клинико эпидемиологические особенности норовирусной инфекции у детей грудного возраста» Журнал гепатогастроэнтерологических исследований. Ежеквартальный научно-практический журнал №1 (Том 2) 2021 год. С. 19-20.

3. Иванов А.С. Современные представления об антибиотико-резистентности и антибактериальной терапии сальмонеллезов // Клиническая микробиология и антимикробная химиотерапия. — 2009. — Т. 11, № 4. — С. 305–322.

4. Мирзажонова Д.Б., Бахриева З.Д., Абдухалилова Г.К., Имамова И.А. Тошкент тиббиет академияси ахборотномаси Сальмонеллезов на современном этапе (обзор литературы). № 5 2021, 104-110.

5. Мирзажонова Д. Б., Бахриева З. Д. Журнал гепатогастроэнтерологических исследований. Ежеквартальный научно-практический журнал №1 (Том 1) “Болаларда салмонеллез касаллиги тарқалган шакли клинико лаборатор кечиш хусусиятлари” 2021 год. С. 90-92.

6. Рустамова Ш.А. «Республикамизда болаларда ўткир юқумли ичак касалликларининг иқлимий ўзгаришлар билан боғлиқлигини таҳлил қилиш (Самарқанд вилояти миқёсида)». Биология ва тиббиет муаммолари илмий амалий журнал. №3 (128) 2021 С.102-107.

7. Фазульязнова А.И., Ткачева С.В., Сагитова А.Ш., Рахманова О.А. Антибиотикорезистентность распространенных штаммов сальмонелл и шигелл. Практическая медицина. 2020. Том 18, № 4, С. 88-90)

8. Шодиева Д.А., Ташпулатов Ш.А., Джумаева Н.С. Внешнее дыхание при ботулизме у детей в зависимости от степени тяжести основного процесса Журнал «Вопросы науки и образования» №6 (131), 2021 с-35-43.

9. Шодиева Д.А., Ташпулатов Ш.А. “Болаларда ботулизм касаллигининг оғирлик даражасига боғлиқ ташқи нафас тизими томонидан кузатиладиган ўзгаришлар” ПБИМ 2021. №5 (130) с-151-154

10. Parry C.M., Ho V.A., Phuong L.T., et al. Randomized controlled comparison of ofloxacin, azithromycin and ofloxacin-azithromycin combination for treatment of multidrug-resistant and nalidixic acid-resistant typhoid fever. *Antimicrob Agent Chemother* 2007; 51:819-25.

11. Varma J.K., Molbak K., Barrett T.J., Angulo F.J., et al. Antimicrobial-resistant nontyphoidal *Salmonella* is associated with excess bloodstream infections and hospitalizations. *J Infect Dis* 2005;191:554-61.

УДК 378:372.8:37.035.3:004

**ИНТЕРАКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В СИСТЕМЕ  
ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ***Джумаева Насиба Собировна.*<sup>1</sup>Самаркандский Государственный медицинский университет,

г. Самарканд

[djumayeva.nasiba1986@gmail.com](mailto:djumayeva.nasiba1986@gmail.com), +998915251338

**Аннотация.** В статье описывается роль интерактивных технологий в развитии творческого мышления студентов в образовательном процессе. Также в статье приводятся отзывы о педагогических и психологических возможностях педагога при реализации этого процесса, образовательных технологиях, служащих развитию творческого мышления. Помогать студентам осуществлять самостоятельную, творческую деятельность означает создавать им условия для определения своих позиций и реализации их на практике, давать задания, направленные на педагогическое сопровождение их творческой деятельности.

**Ключевые слова:** творчество, интерактивное обучение, студенты

УДК 378:372.8:37.035.3:004

**OLIV TA'LIM TIZIMIDA INTERFAOL TEXNOLOGIYALAR***Djumaeva Nasiba Sobirovna.*<sup>1</sup> Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand.[djumayeva.nasiba1986@gmail.com](mailto:djumayeva.nasiba1986@gmail.com), +998915251338

**Annotatsiya.** Maqolada interfaol texnologiyalarning ta'lim jarayonida talabalar ijodiy fikrlashini rivojlantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, maqolada bu jarayonni amalga oshirishda pedagogning pedagogik-psixologik imkoniyatlari, ijodiy fikrlashni rivojlantirib borishga xizmat qiluvchi ta'lim texnologiyalari xususida fikr-mulohazalar keltirilgan. O'quvchilarning mustaqil, ijodiy faoliyatini amalga oshirishga yordam berish, ularning o'z o'rnini aniqlashi va amaliyotda ix qo'llashi uchun sharoit yaratish, pedagogik qarshilik ixni ijodiy faoliyatga yo'naltiruvchi topshiriqlarni berish demakdir.

**Kalit so'zlar:** ijodkorlik, interfaol ta'lim, talabalar

УДК 378:372.8:37.035.3:004

**INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN THE HIGHER  
EDUCATION SYSTEM***Dzhumaeva Nasiba Sobirovna*

Samarkand State Medical University, Samarkand.

[djumayeva.nasiba1986@gmail.com](mailto:djumayeva.nasiba1986@gmail.com), +998915251338



**Annotation.** The article describes the role of interactive technologies in the development of creative thinking of students in the educational process. The article also provides reviews about the pedagogical and psychological capabilities of the teacher when implementing this process, educational technologies that serve the development of creative thinking. Helping students carry out independent, creative activities means creating conditions for them to determine their positions and implement them in practice, giving tasks aimed at pedagogical support of their creative activities.

**Keywords:** creativity, interactive learning, students

**Актуальность.** Цель высшего педагогического образования – расширить возможности высшего педагогического учебного заведения по удовлетворению многочисленных культурно-образовательных потребностей личности и общества, повысить удобство системы развития общекультурных, научных и профессиональных способностей специалистов для систему образования с учетом потребностей рынка труда и экономики [1,3,8]. Образовательный процесс в системе высшего педагогического образования позволяет студентам получить знания о человеке и обществе, истории и культуре, получить основные фундаментальные знания, направить их на научную деятельность, усвоить основы профессиональных педагогических знаний, расширить возможности развития педагогического творчества. Студент всегда должен иметь возможность проявить важные навыки творческой деятельности. Только тогда он сможет проявить свои творческие способности в ходе профессиональной карьеры. Использование таких понятий, как «самоуправление», «саморазвитие», «личная активность», «самоорганизация» в практике личностно-ориентированного образования является главным свидетельством того, что личностно-ориентированный подход в обучении сегодня становится все более актуальным. [1,2,6]. Одним из ведущих инструментов формирования творческих качеств у учащихся. Общим моментом всего этого является то, что субъект сам является инициатором и организатором своего процесса обучения, воспитания и развития, то есть получающий образование студент не становится субъектом познания, а рассматривается таковым с самого начала. Анализ содержания развития творческих способностей у студентов на основе требований ДТС, применительно к сущности таких основных понятий, как «творчество», «творческие способности», «педагогическое творчество», «интерактивное обучение», «педагогическая среда», «развитие творческих способностей учащихся» в рамках исследования. [4,7]. Четко и систематически излагал свои независимые взгляды и теоретические наблюдения. Практическая реализация указанных исследовательских задач в общем содержании научно-исследовательской работы, основанная на анализе философских, научно-педагогических, психологических истоков и существующей ситуации, теоретических основ развития творческих способностей студентов в процесс интерактивного обучения освещен на примере современных педагогических и психологических исследований. [4,5,9]. При этом, соглашаясь с мнением

ученых-педагогиков-психологов, хотелось бы подчеркнуть, что средства поддержки познавательной активности студентов и на этой основе их творческих устремлений должны быть направлены на следующие цели:

а) общепедагогическая поддержка всех обучающихся (внимательное и хорошее отношение к обучающимся, вовлечение в планирование учебного процесса, создание среды взаимного обучения, активное содержание обучения, развивающие игры, красочные творческие работы, оценка их достижений по положительной «лестнице обучения»). успех», использование диалогического общения);

б) индивидуально-личностная поддержка (выявление личных проблем учащегося; тактичная диагностика развития, воспитания, обучения; контроль за процессом развития каждого учащегося; обеспечение потребности в педагогической помощи и поддержке с учетом индивидуальных особенностей учащегося и т.п.)

1. Анализ различных подходов показывает, что для полноценного изучения направленности профессиональной деятельности будущего учителя на творчество необходимо подойти к ней с точки зрения теории отношения. На основании этого нам удалось определить следующее:

наличие интереса к учебному предмету;

- наличие желания изучать определенный предмет;
- превосходство стремления посвятить себя учебе и образованию;
- осознание своих педагогических способностей;
- сильное желание получить высшее образование;

- существование представления о важности профессии учителя для общества; - наличие склонности к педагогическому творчеству;

- например, сила потребности в финансовой поддержке. Если сравнить студентов, выбравших профессию учителя, по склонности к этой деятельности, интересу к ученикам, то станет ясно, что 60% будущих учителей выбрали эту профессию исходя из своих профессиональных склонностей и необходимости работы со студентами. [1,2,10]. Наши научные исследования показывают, что педагоги должны решать следующие педагогические и психологические задачи конкретного характера:

- помочь студентам понять ценность, цель, перспективность, уникальность реализации результатов своей творческой деятельности и сотрудничать с ними таким образом;

- направление аналитического, критического, конструктивного отношения студентов к материальному существованию на созидательные, созидательные цели;

- формирование и регулярное развитие у студентов навыков теоретического анализа;

- регулирование эмоционального и конструктивного отношения студентов к своей творческой деятельности;

- создать благоприятные педагогические условия для вовлечения студентов в совместную творческую деятельность;

- оказание поддержки студентам в творческом осуществлении своей деятельности и самовыражении;
- сотрудничество и помощь обучающимся в целях устранения препятствий, отрицательно влияющих на их самостоятельное развитие;
- например, подготовка почвы для перевода учащихся своих личных проблем в содержание творческого мышления.

Результаты педагогического сопровождения творческой деятельности студентов проявляются в углублении их индивидуальности и творческих качеств. Креативное мышление, в свою очередь, позволяет учащимся:

- приобретать знания самостоятельно и осознанно;
- постоянно двигаться вперед;
- разумное разрешение различных конфликтных и проблемных ситуаций;
- учит нестандартному и новому мышлению.

Творческая деятельность – это форма мышления, развивающаяся путем тренировки, способности, талант, увлеченность, новаторство, креативность являются признаками творческой деятельности. [1,2,3]. Результат нашего исследования показал, что творческие задания целесообразно проанализировать, разделив их на три группы по видам деятельности учащихся. Это:

- творческая самостоятельная работа;
- творческие упражнения;
- проблемы с обучением.

**1.** Творческая самостоятельная работа отличается от других видов творческих заданий в двух аспектах: оперативной организации и возможности продолжения учебной деятельности. Творческая самостоятельная работа является таким инструментом воспитания, при применении которого в обучении: - сохраняется энтузиазм к чтению и обучению, обеспечиваются мотивации, созданные в рамках урока; - приводит к расширению знаний, знаний и умений обучающихся; - подготавливает почву для продолжения студентами самостоятельной деятельности по изученному учебному материалу; - в определенной степени облегчает руководство деятельностью учащихся.

**2.** Творческое упражнение. Постоянное запоминание и повторение знаний вызывает скуку в учебе. В процессе обучения используются творческие упражнения, позволяющие исключить скуку обучающихся. Творческие упражнения отличаются по двум признакам: 1) расширяют круг усваиваемых знаний. Когда обучающийся неоднократно возвращается к ранее изученному учебному материалу, он обогащает сферу своего понимания широким кругом знаний, воображения, фактов, связей; 2) творческие упражнения ориентированы как на память, так и на мышление, в отличие от упражнений, рассчитанных на постоянное участие. Наряду с темой обучающийся творчески осваивает дополнительную информацию и способы деятельности. Проблемным упражнением является использование учебных материалов, требующих неизвестных обучающемуся знаний. Это требует от него активного мышления.

**3.** Учебные задачи представляют собой «набор учебных задач» и могут быть представлены в виде системы творческих задач. При подготовке учащихся к творческой деятельности необходимо прежде всего дать им понять, что они сами несут ответственность за эту деятельность. В развитии творческого мышления учащихся проблемное обучение, в отличие от других видов обучения, формирует у учащихся систему знаний, умений и

компетенций, формирует у них высокую умственную активность и саморазвитие. Проблемная задача – направить обучающегося к самостоятельному творческому поиску. Например, написание эссе, реферата, изобретение чего-либо, проведение эксперимента и т. д. осуществляется на основе проблемного задания, что, в свою очередь, создает интерактивную среду обучения. В интерактивном обучении преподаватель является активным организатором учебной деятельности, а ученик выступает субъектом этой деятельности. В этом случае цели и задачи обучения, его содержание и ожидаемые результаты определяются непосредственно в пределах индивидуальных возможностей обучающегося и соответствующим образом корректируются. Интерактивные методы обучения являются важным средством реализации интерактивного образования. Интерактивные методы обучения не только формируют активность, креативность и самостоятельность учащихся в процессе усвоения информации, но и помогают в полной реализации образовательных целей. Это требует активного мышления от учащегося, который анализирует доказательства, исследует происхождение объектов. Основная концепция данной технологии выражается в проблемных задачах разного уровня сложности, решая их, обучающийся приобретает новые знания и способы деятельности, в результате чего у него формируются творческие способности: продуктивное мышление, воображение, познавательная мотивация, интеллектуальное чувство. Проблемный вопрос отличается от простого вопроса тем, что он не просто относится к приобретенным знаниям обучающегося, а требует от него выражения собственного независимого мнения. Технология проблемного обучения привлекает внимание своим удобством: ее можно использовать на всех уровнях образования, на примере всех учебных предметов. Педагогу лучше освоить технологию проблемного обучения, которую можно использовать на уроках. «Синквейн», «Пять с плюсом», «Чархпалак», «Знаю, хочу знать, узнал», «Бумеранг», «Тренинг общения», «Блиц-игра», «Цепочка», «Обсуждение», «Работа в малых группах», «Презентация», «Небольшая лекция» при изложении новой темы, «Ролевая игра», «Мозговой штурм», «Каждый всех учит», «Импульс», «Жизненный путь», «Ситуации».

Большое значение для повышения качества урока имеет разработка и использование ряда интерактивных методов и небольших технологий, таких как «Акл Чархи», исходя из цели урока. Они представляют собой тщательное приобретение студентом теоретических знаний; эффективное использование времени; креативное мышление; активация урока; умение прислушиваться к мнению других; приводит к выводам из высказанных мнений. 1. Личностно-ориентированное образование имеет особое значение в развитии творческого мышления учащихся. В нем задачи, поставленные перед обучающимся, ориентированы на развитие, проявление, понимание и оценку его личности. Соответственно, в видах заданий особое внимание уделяется самооценке, анализу своих ошибок, оценке своего места в учебной деятельности, раскрытию своих способностей и талантов. Обучающемуся предоставляется возможность выбирать виды учебных задач или учебной деятельности

(освоение предмета целиком или по частям). Он должен развивать свои навыки и способности внутри группы. Соответственно, для создания условий для совместной работы обучающихся эффективно используются мозговой штурм, «ролевые игры», работа в группах, метод проектов и т.д. Проектирование и использование в учебном процессе интерактивных методов и игр, связанных с личностными, проблемно-ориентированными и развивающими образовательными технологиями, исходя из цели урока, приводит к следующим результатам: - повышается интерес учащихся к обучению; - повышается мотивация обучения; учащимся не дают скучать и уставать на уроках; - обеспечивается сотрудничество преподавателя и ученика; - у учащихся будет развиваться речь и логическое мышление; - у обучающегося развиваются творческие способности к работе и активное мышление.

**Выводы:** На основании изложенных соображений нами разработана модель (модель) формирования всесторонне развитой личности в современный период. Ведь совершенное образование человека имеет огромное значение в формировании самостоятельно мыслящей, свободной и творческой личности, что служит выводу нашей республики на уровень развитых стран мира. В этом процессе целесообразно предоставлять будущим учителям научно обоснованную информацию о существующих педагогических инновациях, их характеристиках, параметрах применения, инновационных возможностях обучения. Только успешная творческая среда позволяет учащимся активно изучать новое и учиться применять его в своей работе. Важным педагогическим условием формирования творческих способностей будущих учителей является их направленность на самостоятельное обучение и творческое мышление. В результате реализуется многоуровневая система высшего педагогического образования. Исходя из этой точки зрения, можно сказать, что интерактивное обучение представляет собой особую форму проявления познавательной деятельности. Когда процесс обучения осуществляется таким образом, все учащиеся полностью вовлечены в учебный процесс. В этом процессе у студентов будет возможность проанализировать то, что они знают и свои мысли.

## ЛИТЕРАТУРА

1. Sobirovna D. N., Zakirovna U. G., Abdusalolovna S. D. Post-covid syndrome in new coronavirus infection //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 1106-1112.
2. Култаева Н. Ж., Джумаева Н. И. Развитие организаторских способностей студентов высших учебных заведений //Молодой ученый. – 2014. – №. 9. – С. 491-493.
3. Джумаева Н., Абдухамитова М., Шодиева Д. Клинико-лабораторная характеристика паротитной вирусной инфекции у взрослых в современных условиях //Журнал вестник врача. – 2012. – Т. 1. – №. 04. – С. 54-57.

4. Джумаева Н. и др. Характеристика клинических проявлений гипоксически-ишемического поражения у новорожденных в остром периоде // Журнал проблемы биологии и медицины. – 2016. – №. 2 (87). – С. 49-52.

5. Шодиева, Д., Рустамова, Ш., Абдухамитова, М., & Джумаева, Н. (2012). Ротавирусные гастроэнтериты. Журнал вестник врача, 1(04), 142–144. [https://inlibrary.uz/index.php/doctors\\_herald/article/view/10850](https://inlibrary.uz/index.php/doctors_herald/article/view/10850)

6. Ярмухамедова Н. А. и др. Клиническо-эпидемиологические аспекты нейробруцеллеза по данным областной инфекционной клинической больницы города Самарканда // Вестник науки и образования. – 2020. – №. 18-2 (96). – С. 72-77.

7. ШОДИЕВА Д. А., ТАШПУЛАТОВ Ш. А. ОСЛОЖНЕНИЯ ПРИ ПИЩЕВОМ БОТУЛИЗМЕ (литературный обзор) // ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ. – 2022. – Т. 7. – №. 5.

8. Шодиева Д. А., Ташпулатов Ш. А. Критерии тяжести основного процесса при ботулизме у детей // Children's Medicine of the North-West. – 2020. – Т. 8. – №. 1. – С. 403-403.

9. Ярмухамедова Н. А. и др. CLINICAL AND EPIDEMIOLOGICAL ASPECTS OF NEUROBRUCellosIS ACCORDING TO THE INFORMATION OF SAMARKAND MUNICIPAL INFECTIOUS DISEASES HOSPITAL // Вестник науки и образования. – 2020. – №. 14-2. – С. 61-66.

10. Рузиева М., Шукуров Ф., Шодиева Д. Самарқанд вилоятида оив инфекцияси эпидемиологик аспектлари // Журнал вестник врача. – 2014. – Т. 1. – №. 01. – С. 11-13.

11. Курбонова Л. и др. Бруселлэз билан оғриган беморларда электрокардиограмминг ўзига хос хусусиятлари // Журнал вестник врача. – 2014. – Т. 1. – №. 01. – С. 6-7.

12. Юсупова Н., Шодиева Д. Ботулизмнинг замонавий аспектлари // Журнал вестник врача. – 2014. – Т. 1. – №. 01. – С. 20-21.

13. Шодиева Д. А., Ташпулатов Ш. А., Джумаева Н. С. ВНЕШНЕЕ ДЫХАНИЕ ПРИ БОТУЛИЗМЕ У ДЕТЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ СТЕПЕНИ ТЯЖЕСТИ ОСНОВНОГО ПРОЦЕССА // Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 6 (131). – С. 35-43.

14. Джумаева Н., Абдухамитова М., Шодиева Д. Клинико-лабораторная характеристика паротитной вирусной инфекции у взрослых в современных условиях // Журнал вестник врача. – 2012. – Т. 1. – №. 04. – С. 54-57.

15. Джумаева Н. С., Восеева Д. Х., Абдурахмонова З. Э. Современный взгляд на лечение лямблиоза // Достижения науки и образования. – 2020. – №. 16 (70). – С. 65-69.

16. Джумаева Н. С., Ярмухамедова Н. А., Узакова Г. З. Амалиётдан бир ҳолат Covid-19 касаллиги ҳамроҳ касалликлар билан кечиш хусусиятлари // Самарқанд: Журнал гепато-гастроэнтерологических исследований. – 2021.

17. Узакова Г. З., Ярмухамедова Н. А., Джумаева Н. С. Болаларда коронавирус инфекцияси кечишининг узига хос хусусиятлари // Самарқанд: Журнал гепато-гастроэнтерологических исследований. – 2021.

18. Бахриева З.Д., Жумаева Н.С., Узакова Г.З. Проблемы биологии и медицины Самарқанд вилояти Юқумли касалликлар клиник шифохонаси материаллари асосида ҳомиладор аёлларда салмонеллез касаллиги кечиш хусусиятларини таҳлил қилиш 2021. №1.1 (126). С.58-61.

19.Бахриева З., Джумаева Н., Эрназаров А. Применение «энтерола» в лечение секреторных диарей у детей //Журнал проблемы биологии и медицины. – 2014. – №. 3 (79). – С. 90-91.

20. Ярмухамедова Н. А., Джумаева Н. С., Восеева Д. Х. ПОСТКОВИД синдромда неврологик ўзгаришлар //Uzbek journal of case reports. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 74-76.

21.Sobirovna D. N. NEUROLOGICAL CHANGES IN POST-COVID SYNDROME //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2024. – Т. 19. – №. 4. – С. 50-55.

22. Мирзажоннова Д.Б., Бахриева З.Д., Абдухалилова Г.К., Имамова И.А. Тошкент тиббиет академияси ахборотномаси Сальмонеллезов на современном этапе (обзор литературы). № 5 2021, 104-110.

23. Мирзажоннова Д. Б., Бахриева З. Д. Журнал гепато - гастроэнтерологических исследований. Ежеквартальный научно-практический журнал №1 (Том 1) “Болаларда салмонеллез касаллиги тарқалган шакли клинико лаборатор кечиш хусусиятлари” 2021 год. С. 90-92.

## AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPERATSIYALAR HISOBINI YURITISHDA MUOMMO VA ISTIQBOLLARI

*Eshonqulov Azamat Abdiraximovich*

*TDIU Buxgalteriya hisobi va hisoboti kafedrasida*

*Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori*

*Azimova Nargiza Rashidovna*

*O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi,*

*magistratura tinglovchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada "Aksiyadorlik tijorat banklarida depozit operatsiyalari hisobini yuritishda muammo va istiqbollari" bank tizimidagi muhim masalalarga e'tibor qaratadi. Aksiyadorlik tijorat banklarining depozit operatsiyalari bilan bog'liq hisob yuritish jarayonidagi muammolarni tahlil qilinadi va ularning yechimlariga oid istiqbollarni ko'rib chiqiladi. Depozitlarning qabul qilinishi, hisoblanishi va hisob-kitoblari bilan bog'liq amaliyotlar, shuningdek, muammolarni tahlil qilish. Hisob yuritishdagi aniq kamchiliklar, xatoliklar, tartibga solishdagi muammolar va texnologik cheklovlar. Muammoni hal qilish va hisob tizimini takomillashtirish uchun tavsiya etilgan yechimlar, innovatsion yondashuvlar va texnologik imkoniyatlar. Banklar uchun zaruriy bo'lgan aniq va samarali hisob yuritish amaliyotlarini takomillashtirishga yordam beradigan ma'lumotlar va tavsiyalarni taqdim etadi. Shuningdek, ushbu muammolarni bartaraf etish orqali banklarning moliyaviy barqarorligi va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga qaratilgan istiqbollarni muhokama qiladi.

**Kalit so'zlar.** Aksiyadorlik tijorat banklari, depozit operatsiyalari, hisob yuritish, moliyaviy hisob, bank hisoboti, tijorat banklari, depozit hisoblari, moliya tizimi, hisob-kitob jarayoni, texnologik cheklovlar.

### KIRISH

Aksiyadorlik tijorat banklari iqtisodiyotning markaziy sektori sifatida, moliyaviy resurslarni mobilizatsiya qilish va ulardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Ularning asosiy funksiyalaridan biri — depozit operatsiyalarini amalga oshirishdir. Depozitlar banklar uchun asosiy moliyaviy resurs bo'lib, ular mijozlarning omonatlarini qabul qilish va saqlash, shuningdek, bu mablag'larni kreditlar va boshqa moliyaviy mahsulotlar uchun foydalanish imkonini beradi. Biroq, banklarda depozit operatsiyalarini hisobga olish va yuritish jarayonida bir qator muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bu muammolar, o'z navbatida, banklarning moliyaviy holatini, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini va umumiy barqarorligini ta'sir qiladi. Misol uchun, hisob yuritishdagi xatoliklar, noto'g'ri hisob-kitoblar yoki texnologik cheklovlar banklarning operativ samaradorligini pasaytirishi mumkin. Aksiyadorlik tijorat



banklarida depozit operatsiyalarini hisobga olishdagi muammolar va cheklovlar tahlil qilinadi. Shuningdek, bu muammolarni bartaraf etish va hisob tizimini takomillashtirish uchun taklif etilgan istiqbollar va yechimlar ko'rib chiqiladi. Banklarning hisob-kitob jarayonini yaxshilash va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali mavjud muammolarni kamaytirishga va moliyaviy barqarorlikni oshirishga yordam beradigan tavsiyalar hamda bank sohasidagi amaliyotchilar, moliya mutaxassislari va tadqiqotchilar uchun muhim ma'lumotlar manbai bo'lib, banklarning depozit operatsiyalarini yanada samarali va ishonchli tarzda yuritishga yordam beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, monagrafik kuzatish usullaridan foydalanilgan.


**Tahlil va natijalar.** Aksiyadorlik tijorat banklarida depozit operatsiyalarini hisobga olish jarayonidagi muammolar va yechimlarni tahlil qilish, bank tizimining samaradorligini va barqarorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu tahlil banklarning depozit operatsiyalarini yanada samarali boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Har bir muammo uchun aniq va samarali yechimlarni joriy etish banklarning umumiy ish faoliyatini yaxshilash va moliyaviy risklarni kamaytirishga imkon yaratadi. Quyida muammolar va yechimlarning tahlili keltirilgan.

Yuqoridagi muammolarni hal etish banklarning moliyaviy barqarorligini saqlash, mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishni davom ettirish va umumiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun juda muhimdir. Bu muammolarni bartaraf qilish uchun quidagi yechimlarni amalga oshirish orqali banklarda depozitlarlar muammolarini hal qilishga yordam beradi.

✓ Hisob-kitob xatoliklarini kamaytirish uchun, banklar zamonaviy dasturiy ta'minot va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanishlari kerak. Avtomatlashtirilgan tizimlar hisob-kitob jarayonlarini yanada aniqroq va samaraliroq amalga oshirishga yordam beradi, xatoliklarni kamaytiradi va ish vaqtini qisqartiradi.

✓ Eski texnologik tizimlarni modernizatsiya qilish va yangi, ilg'or texnologiyalarni joriy etish orqali banklar ma'lumotlarni tez va samarali qayta ishlashni amalga oshirishlari mumkin. Masalan, bulutli hisoblash, sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalari banklarning hisob-kitob jarayonlarini yaxshilashga yordam beradi.

✓ Banklar uchun qonun va reglamentlar o'zgarishlarini muntazam ravishda kuzatib borish va ularga moslashish juda muhim. Banklar huquqiy masalalar bo'yicha mutaxassislarni yollash yoki normativ talablarni yangilash uchun doimiy ravishda o'qitish tizimini joriy etishlari kerak.



**1-Rasm. Banklarida depozit operatsiyalar hisobini yuritishda muommolar<sup>1</sup>.**

✓ Hisob yuritish va moliyaviy boshqaruv sohasida xodimlarning malakasini oshirish uchun doimiy treninglar va kurslar tashkil etish muhimdir. Xodimlarning bilim va tajribasini oshirish ularning ish faoliyatini yaxshilashga yordam beradi va xatoliklarni kamaytiradi.

✓ Ma'lumotlarni himoya qilish uchun xavfsizlik protokollarini mustahkamlash, shifrlash texnologiyalarini joriy etish va ma'lumotlarga kirishni nazorat qilish

<sup>1</sup> Muallif tomonidan ishlangan.

tizimlarini yaxshilash zarur. Banklar, shuningdek, xakerlik hujumlaridan himoyalaniş uchun xavfsizlik testlarini o'tkazishlari kerak.

✓ Bir nechta tizimlar orasidagi ma'lumotlarni to'liq va aniq qayta ishlash uchun, tizimlarni birlashtirish va integratsiya qilish strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Bu ma'lumotlarning uzluksizligini ta'minlash va hisob-kitob jarayonlarini yaxshilashga yordam beradi.

✓ Jismoniy va raqamli hisob-kitoblar o'rtasidagi moslikni ta'minlash uchun, hisob-kitob jarayonlarini qayta ko'rib chiqish va integratsiya qilish zarur. Ushbu ikki jarayonni moslashtirish va to'g'ri yo'lga qo'yish orqali hisob-kitobdagi kelishmovchiliklarni kamaytirish mumkin.

✓ Hisob-kitob va auditorlik jarayonlarini shaffof qilish, auditorlik tekshiruvlarini yaxshilash va xatoliklarni aniqlash uchun aniq va batafsil hisobotlarni taqdim etish kerak. Banklar auditorlik nazoratini kuchaytirish va ichki nazorat tizimlarini yaxshilash orqali shaffoflikni ta'minlashlari mumkin.

Bu yechimlar banklarning depozit operatsiyalarini yanada samarali va ishonchli tarzda boshqarishlariga yordam beradi, xatoliklarni kamaytiradi va moliyaviy barqarorlikni saqlashga ko'maklashadi.

## XULOSA

Xulosa qilganimizda aksiyadorlik tijorat banklarida depozit operatsiyalarini hisobga olish jarayoni moliyaviy tizimning muhim qismini tashkil qiladi. Bu jarayonda uchraydigan muammolar, masalan, hisob-kitob xatoliklari, texnologik cheklovlar, muvofiqlik muammolari, xodimlar malakasi, ma'lumot xavfsizligi, tizim integratsiyasi, jismoniy va raqamli hisob-kitobdagi moslik, shaffoflik muammolari banklarning samaradorligini va moliyaviy barqarorligini ta'sir qiladi.

Yuqorida taqdim etilgan yechimlar bu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan. Hisob-kitob jarayonlarini avtomatlashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, normativ talablarga moslashish, xodimlarning malakasini oshirish, ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash, tizimlarni integratsiya qilish, jismoniy va raqamli hisob-kitoblarni moslashtirish, auditorlik va hisob-kitobning shaffofligini oshirish orqali banklar hisob operatsiyalarini yanada aniqroq, samaraliroq va xavfsizroq amalga oshirishlari mumkin.

Bularning barchasi banklarning moliyaviy holatini yaxshilashga, mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishni davom ettirishga va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Banklar, bu muammolarni hal qilish orqali o'z operatsiyalarini yanada ishonchli va samarali qilishlari mumkin, bu esa umumiy iqtisodiy rivojlanish va barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Markaziy bankning Bank hisob varaqlarini ochish, yuritish va yopish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma (ro'yxat raqami 3420, 2023-yil 8-fevral) asosida amalga oshiriladi.
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Banklar va bank faoliyati" to'g'risida. <https://lex.uz/acts/-2681>.
3. A. K. Ibragimov, Z. A. Umarov, K. R. Xotamov, N. Rizayev Tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standart-lari, /darslik. –T.: "Iqtisod-Moliya", 2020-446 b.
4. D. V. Reimova, Tijorat banklarida deposit operatsiyalarini rivojlantirish istiqbollari/ magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya-2018.
5. J. E. Butayev, Tijorat banklari deposit bazasini mustahkamlash yo'llari-Journal Of Marketing, Business And Management(Jmbm) jurnaliga maqola/–2022.
6. International banking/Types of Banks \_ History of Banking.htm/.
7. Abdullaeva SH.Z. Pul, kredit va banklar. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007 yil, 348 bet.
8. Golodova J.G.Finansi i kredit.Uchebnoe posobie. M-INFRA.M -2012 g.448 st.(RUDN).

## BANK DEPOZIT OPERATSIYALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHDA HOZIRGI KUNDAGI O'RNI

*Eshonqulov Azamat Abdiraximovich*

*TDIU Buxgalteriya hisobi va hisoboti kafedrasi*

*Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori*

*Azimova Nargiza Rashidovna*

*O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi,*

*magistratura tinglovchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu Maqola bank depozit operatsiyalarini hisoblash va boshqarishdagi zamonaviy yondashuvlarni tahlil qiladi. U banklar tomonidan depozit operatsiyalarini qayd etish va boshqarish usullaridagi yangiliklarni ko'rib chiqadi. Maqolada zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa raqamli vositalar va avtomatlashtirilgan tizimlar, bu jarayonlarni qanday qilib samarali qilish mumkinligi haqida batafsil ma'lumot beriladi.

